



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
TARJIMONLIK FAKULTETI
ROMAN-GERMAN TILLARI TARJIMASHUNOSLIGI
KAFEDRASI

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**“TARJIMASHUNOSLIK VA
TILSHUNOSLIKNING DOLZARB
MUAMMOLARI:
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA
YONDASHUVLAR”**

TOSHKENT - 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
TARJIMONLIK FAKULTETI
ROMAN-GERMAN TILLARI TARJIMASHUNOSLIGI KAFEDRASI**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**“TARJIMASHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING DOLZARB
MUAMMOLARI:
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA YONDASHUVLAR”**

Международная научно-практическая конференция

**«Актуальные проблемы переводоведения и языкознания: современные
тенденции и подходы»**

The International Scientific-Practical Conference

**“Current Issues in Translation Studies and Linguistics: Modern Trends and
Approaches”**

TOSHKENT – 2025

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli "O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to'g'risida" buyrug'i asosida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakulteti Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasidan 2025-yil 20-noyabr sanasida tashkil etilgan "Tarjimashunoslik va tilshunoslikning dolzarb muammolari: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar" masalalariga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plamidan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlar, talabalar foydalanishlari mumkin.

Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

Mas'ul muharrir:

Yo'ldoshev Ulugbek Ravshanbekovich
Tarjimonlik fakulteti dekani, *DSc, professor*

Xoliyarov Lutfulla Tashkuvatovich

Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasidan mudiri, f.f.n., dotsent

Tahrir hay'ati a'zolari:

Mo'minova Aziza Arslonovna - *Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasidan professori, DSc*

Dadamirzayeva Maloxat Valiyevna - *Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasidan dotsenti*

Abdullayeva Soxibaxon Yakubovna - *Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasidan dotsenti, PhD*

Yunusova Sohibaxon Abdusattorovna - *Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasidan v.b. dotsenti, PhD*

O‘ZDJTU REKTORI ILXOMJON TUXTASINOV TABRIGI

Assalomu alaykum, hurmatli bugungi anjuman ishtirokchilari, hurmatli ustozlar, ilm-ma’rifat ulashuvchi professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, talabalar hamda soha mutaxassislari!

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetiga xush kelibsiz!

Avvalambor, bizni bugungi **“Tarjimashunoslik va tilshunoslikning dolzarb muammolari: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanimizga qiziqish bildirib, tashrif buyurganingiz uchun minnatdorlik bildiramiz!

Bugungi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman mavzusi har birimiz uchun nafaqat ilmiy-nazariya manbalari, balki amaliyotda yangicha yondashuvlarni qo‘llashni talab qiladi. Bugungi ilmiy muloqotimiz shubhasiz turli sohalaridagi tayyorgarlikni, yangi innovatsiyalarni va xalqaro o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Nemis, fransuz tillarini xorijiy til sifatida o‘qitish bo‘yicha nafaqat respublika, balki Markaziy Osiyoda ham yetakchi bo‘lib, Oliy ta’limning investisiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, ta’lim tizimini rivojlantirishda innovasion texnologiyalarni joriy qilish istiqbollari va mazkur yo‘nalishdagi xalqaro tajribani o‘rganish, hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, xalqaro tajribalar asosida xorijiy tillarni o‘qitish rivojlantirish strategiyasi, ta’lim tizimida fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash kabi dolzarb muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha o‘zaro fikr almashish zaruriyati mavjud.

Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedraasi tashkil topgan 2019 yildan hozirga qadar bir qator yutuqlarga erishdi. Bu qisqa fursat davomida universitet halqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Germaniyaning OTMlari va xalqaro tashkilotlari - Mayns universiteti Tarjimonlik fakulteti, Boxum Rur universiteti, Myunxen Til va Tarjima instituti, Frayburg universiteti, Xaydelberg pedagogika oliy o‘quv yurti, Toshkentdagi Gyote instituti, Germaniya elchixonasi va DAAD tashkiloti bilan samarali hamkorlikni amalga oshirmoqda. Mazkur hamkorlik doirasida bir nechta xalqaro loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, shu kunga qadar yuqoridagi OTM va tashkilotlar ko‘magida universitetga 10 dan ortiq Germaniyalik mutaxassislar taklif qilindi. Ular yordamida universitetda talabalarga germanistika va tarjimashunoslikning eng dolzarb mavzulari bo‘yicha ma’ruzalar o‘qish bilan bir qatorda nemis tilini o‘qitishning zamonaviy metodlarini joriy qilish, yangi dastur, darsliklar yaratish yuzasidan o‘quv seminarlari tashkil qilindi.

2017-2023 yil bahorgi semestrda 8 ta nemis tili o‘qituvchisi va 4 nafar talaba akademik mobillik bo‘yicha Germaniyaning Boxum universitetida bo‘lib qaytishdi.

2024 yil 4 maydan 16 maygacha Tarjimonlik fakulteti va Roman-german filologiyasi fakulteti 12 nafar talabalari hamda universitet 3 nafar doktorantlari

Germaniyaning Mayns universiteti va Xaydelberg pedagogika oliy o'quv yurtida malaka oshirib qaytdilar.

O'zDJTU va Myunxen Til va Tarjima instituti o'rtasidagi Erasmus mobillik dasturi loyihasi doirasida 10 nafar talaba tahsil oldi va 2ta o'qituvchi Germaniyada malaka oshirdi.

2024 yil 2-sentiyabrdan 2025 yil 30-yanvargacha Belgiyaning Mons universiteti Tarjimonlik fakulteti 2 nafar talabasi O'zDJTU Tarjimonlik fakultetida tahsil oldi.

Germaniyaning SES (Senior Expert Service) tashkilotidan Petra Runge xonim har yili aprel oyida bir oyga Tarjimonlik fakulteti Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasiga tashrif buyuradi va talabalarga amaliy tarjima va ketma-ket tarjima fanlaridan amaliy mashg'ulot olib boradi.

Tarjimonlik fakulteti Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasida tashabbusi bilan Avstriya davlatining elchisi Matthias Radosztics O'zDJTUga ikki marta tashrif buyurdi va O'zDJTU ARMga 150donadan ortiq o'quv va badiiy adabiyotlar sovg'a qildi.

Germaniyaning Sralzund oliy o'quv yurtiga tarjima sirlarini o'rganish uchun 4 nafar talabalarni 1 semestrga o'qishga jo'natdi.

2025 yil 7-22 mart kunlari O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti Hindistonning Banasthali Vidyapith universitetida 3 nafar o'qituvchi va 6 nafar talabasi borib keldi.

Hindistonning Banastali universitetidan 2025 yil 9 maydan 22-maygacha O'zDJTU tarjimonlik fakultetiga tashrif buyurdi.

Hurmatli anjuman qatnashchilari, bugungi xalqaro-ilmiy anjumanda o'zingizni qiziqartirgan ilmiy muammolarga tegishli savollaringizga nafaqat respublika miqyosida balki Fransiya, Germaniya, Aljir, Rossiya, Hindiston, Qozoqiston va shu kabi rivojlangan davlatlar olimlari tomonidan ilm sohasidagi muammolar, yutuqlar va yechimlar yuzasidan taqdim etiladigan ma'ruza va muhokamalar orqali javob topasiz degan umiddamiz.

Mazkur **“Tarjimashunoslik va tilshunoslikning dolzarb muammolari: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman natijalari kelgusida ilm-fan rivojiga xizmat qila oladigan muhim manba bo'ladi deb umid qilaman.

Barchangizga yurtimiz ilm-fani taraqqiyoti yo'lida ulkan yutuqlar hamda bugungi anjuman ishiga muvaffaqiyat tilaymiz.

Tuxtasinov Ilhomjon Madaminovich O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori